

ARAB TILSHUNOSLIGI HAQIDA

*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili
filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari (arab
tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi
Abdulboqiyeva Nilufar Nozirjon qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova U.S.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilining boshqa tillardan farqi va o'ziga xos xususiyatlarini hamda asosiy yo'nishlari haqida. Su bilan birga, Arab tilshunosligini o'rganish uchun kerak boladigan bo'limlar va ularning ahamiyati, paydo bo'lish tarixini haqida gap olib boriladi.

Kalitli so'zlar : *sarf, nahv, leksikologiya, balog'at, tajvid.*

Abstract: This article discusses the differences and specific features of the Arabic language from other languages, as well as its main directions. Along with this, it discusses the sections necessary for studying Arabic linguistics, their importance, and the history of their emergence.

Keywords: Sarf, Nahw, Lexicology, eloquence, tajweed.

Аннотация: В статье рассматриваются отличия и особенности арабского языка от других языков, а также его основные направления. Кроме того, рассматриваются разделы, необходимые для изучения арабского языкознания, их значение и история их возникновения.

Ключевые слова: *Сарф, Нахв, Лексикология, красноречие, таджвид.*

Arab tili qadimiy til hisoblanadi. Ilk davrlar (VII-VIII asrlar): arab tilshunosligining asoschilaridan biri sifatida Abu al-sawad al-Du'ali tilga olinadi. U nahv (sintaksis) ilmini ilk qoidalarini shakllantirgan.

“Oltin davr” (VIII-XI asrlar): Abbosiylar xalifaligi davrida arab tilshunosligi misli ko'rinmagan darajada rivojlandi. Tilshunoslik fani yo'q joydan

paydo bo'lmagan. Uning yaratilishida ham o'tmishda yashagan va ijod etgan juda ko'p mutafakkirlarning ishtiroki bor. Arab tilshunosligining yaratilishiga olib kelgan sabablardan biri, aftidan, qadimgi hindistondagi kabi, davr o'tishi bilan eski yodgorliklarning, badiiy va diniy asarlarning tili bilan jonli so'zlashuv tili orasida sezilarli farqning paydo bo'lishidir. Muqaddas diniy kitob bo'lgan Qur'onning paydo bo'lishidir. Muqaddas diniy kitob bo'lgan Qur'onni ko'p sonli arab shevalari va boshqa tillarda so'zlashuvchi musulmonlar tili ta'siridan saqlash maqsadi ham ko'zda tutilganini mahalliy tarixchilar qayd qilib o'tganlari ma'lum¹.

Arab tilshunosligining asosiy yo'nalishlari va fan sohalari. Arab tilshunosligi tilni o'rganish uchun bir qancha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Nahv (sintaksis): so'zlarning gapdagi o'zaro aloqasi va jummalarning tuzilishini o'rganadi.
2. Sarf (morfologiya) esa so'zlarning shakli, tuzilishi, o'zak va qo'shimchalar tizimi, shuningdek, so'z yasash jarayonlarini o'rganadi.
3. Balog'at (ritorika va nutq madaniyati): nutqning go'zalligi, ta'sirchanligi, uslubiy jihatlari va mazmunini o'rganadi.
4. Tajvid (talaffuz qoidalari): maxraji 1 va sifatlarini o'rganadi.

O'zbekistonning bu tilga bo'lgan e'tibori. Arab tilshunosligiga ko'plab tilshunoslar qiziqqan. Ulardan eng mashxuri Zamahshariy* hisoblanadi. Zamahshariyni arab tiliga qo'shgan hissasi juda katta va ko'p qirrali. U arab tilshunosligi nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. grammatik qoidalarni aniqlashtirgan, yangi tushunchalarni kiritgan va tilshunoslikning metodologik asoslarini takomillashtirgan. Uning asarlari o'quvchilarga til qoidalarini oson va tushunarli tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Hozirgi kunda uning asarlari arab tili va adabiyotini o'rganishga muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Arab tilshunosligining o'ziga xos xususiyatlari:

¹ Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi, 1972 . 41- bet.

Murakkab grammatik tuzilishi va boy leksikalogiyasi uni boshqa tillar tilshunoslidan ajratib turadi. Izlanishlarimiz natijasida Misrlik Toha Husaynning³ quyidagi fikrlariga duch keldik. U arab tilining boyligi va nafosatini ta’kidlab, arab tilini o’rganish orqali inson tafakkurini rivojlantirish mumkinligini aytadi. Shu fikrlarga tayangan holda arab tilshunosligini o’rganish madaniy merosga va insoniyat tafakkurining yuksak namunalariga ega bo’laolamiz deyishimiz mumkin.

Xulosa:

Arab grammatikasi nafaqat tilning ichki mexanizmlarini chuqur tushunishni ta'minlaydi, balki arab tilining o'ziga xos ifodalilik va aniqlik darajasiga erishishida ham asosiyomil bo'lib xizmat qiladi. Uning izchilligi, mantiqiyiligi va deyarli har bir harf, harakat yoki qo'shimchaning aniq bir ma'no va vazifani ifodalash qobiliyati arab tilini ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va ilohiyot uchun ideal vositaga aylantirgan. Shu sababli, arab grammatikasi Islom sivilizatsiyasining buyuk intellektual yutuqlaridan biri hisoblanadi va dunyo tilshunosligida o'ziga xos alohida o'rin tutadi.

¹ Maxraj- so’zlarning chiqish joyi

² Zamahshariy- tilshunos,faylasuf

³ Toha Husayn- adib va ziyoli

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 1972 .41-bet.
2. Begmatov E. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya,2010.
3. Google ma’lumotlari: <https://arxiv.uz>

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.**Usmonov S. Umumiy tilshunoslik _- Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti, 1972 .41-bet.**
2. **Begmatov ,E. Tilshunoslik asoslari – Toshkent: Fan va texnologiya,2010.**
3. **Google ma’lumotlari: <https://arxiv.uz>**